

Gulchexra OBRUYEVA,
Samarqand davlat chet tillar institutii dosenti, f.f.d
E-mail: g.obrueva79@mail.com
Tel: (91) 5233877

Samarqand davlat chet tillar institutii professori, f.f.d. G'.Mirsanov taqrizi asosida

SEMANTIC STATUS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH NOUN COMPONENTS

Annotation

This article is devoted to the study of phraseological units with proper names. The article also describes in detail some phraseological units with semantic designations and components. Moreover, many examples are given in various contexts.

Key words: Phraseological unit, proper name, common name, category, metaphor, metonymy, emotional, expressive, connotation.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ СТАТУС ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Аннотация

Данная статья посвящается исследованию фразеологических единиц с именами собственными в статье также подробно описываются некоторые фразеологические единицы с семантическим обозначениями и компонентами более того, приводятся много примеров по различным контекстам.

Ключевые слова: Фразеологическая единица, имя собственное, имя нарицательное, категория, метафора, метонимия, эмоциональна, экспрессивно, коннотация.

ATOQLI OT KOMPONENTLI FRAZEOLIGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK MAQOMI

Annotatsiya

Ushbu maqola frazeologik birliklar tarkibidagi atoqli otlarni o'rganishga bag'ishlangan, shu bilan birga semantik belgilar va tarkibiy qismlarga ega bo'lgan ba'zi frazeologik birliklar batafsil bayon etilgan. Shuningdek, turli kontekstlarda ko'plab misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, atoqli ot, turdosh ot, kategoriya, metafora, metonimiya, emosional, ekspressive, konnotasiya.

Kirish. Atoqli otni o'rganish masalasi olimlarni qadim zamonlardan beri – stoiklar atoqli otlarni mustaqil so'zlar sinfi sifatida ajratib ko'satishgan davrdan boshlab band qilib kelmoqda. Atoqli otning o'ziga xosligi, semantikasining o'ziga xos xususiyatlari atoqli ot maqomini zamonaviy tilshunoslikning [1], shu jumladan, frazeologiya sohasida ham [2], eng ko'p muhokama qilinadigan masalalardan biriga aylantiradi.

Atoqli otning mohiyatini alohida til kategoriyasi sifatida baholashda ikkita asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bir guruh olimlar [3] atoqli otning signifikativ funktsiyani bajarish qobiliyatini qat'iy rad etib [4], uning ma'nosini oddiy nomlash bilan cheklashadi [5].

Atoqli otlar bir vaqtda sodir bo'ladigan ma'nolardan xoli ekanligini, ya'ni o'z sohiblarining xususiyatlari va belgilarini ochib bera olmasligini, ta'bir joiz bo'lsa, "konnotatsiyalashira" olmasligini ta'kidlab, J.Mill ularni yorliqlarga o'xshatadi, ular go'yoki biror narsaga yopishtiriladi va shu narsani unga o'xshash boshqa narsalardan ajratib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barcha tadqiqotchilar – ushbu yo'nalish vakillari - atoqli otlarni semantik jihatdan to'la qimmatga ega bo'lmagan otlar deb e'lon qilishadi [6]. Ular o'z qarashlarini quyidagi dalillari bilan tasdiqlaydilar: atoqli otlar tushunchani ifodalamaydi, chunki ular (turdosh otlardan farqli o'laroq), narsalarning belgilarini o'z ichiga olmaydi, umumlashtirish xususiyatiga ega emas, bu esa, o'z navbatida, ularda leksik ma'noning yo'qligini belgilaydi.

Yuqoridagi nuqtai nazarni himoya qiluvchi mualliflar so'z semantik tomonining umumlashtiruvchi funktsiyasini bir xil obyektlarning ko'pligi haqidagi tasavvur bilan bog'lashadi [7]. Shu asnoda, bilish va umumlashtirish obyekti nafaqat obyektlar sinfi, balki uning alohida vakili – atoqli otning sohibi ham bo'lishi mumkin [8]. Aslini olganda, ushbu tadqiqotchilarning barcha say-harakatlari atoqli otlar turdosh otlarning semantik xususiyatlariga, ya'ni "appelyativ" deb ataladigan ma'noga ega emasligi haqidagi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatni isbotlashga yo'naltiriladi. Lekin aynan o'ziga xos xususiyatlar ikkala toifaning o'ziga xosligini yaratadi va ularni farqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir guruh olimlar [3] atoqli otning leksik ma'nosini tan olishni talab qiladi.

Ushbu yo'nalish vakillarining qarashlarida bir xillik mavjud emasligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Masalan, ba'zi tadqiqotchilar atoqli otning mazmun mohiyatini o'rganishga faqat til tizimi nuqtai nazaridan yondashadilar [9], boshqalari esa atoqli otning nutqda qo'llanishiga alohida e'tibor berishadi [10], uchinchi guruhdagi tadqiqotchilar atoqli ot semantikasi voqelanishining o'ziga xosligini ham til sathida, ham nutq sathida ko'rib chiqishadi [11].

V. I. Bezrukov [12] aniq shaxsning (predmet sifatida) ayoniy obrazi, ya'ni bevosita idrok etish obyekti atoqli ot ma'nosining mazmunidir, deb hisoblaydi.

Alan X.Gardiner atoqli otning ma'nosini ismning sohibi bilan bog'liq bo'lgan (assotsiyalanadigan) tasavvurlar majmui sifatida izohlaydi. Obyektning evolyutsiyasi va u haqidagi bilimlarimizning chuqurlashishi tufayli atoqli ot ma'nosining o'zgarib turadigan tabiatini uqitirib o'tib, muallif "... odamlar doimiy o'zgarishlarga duchor bo'ladilar va ism, go'yo, daqiqali, o'tkinchi obrazlarni belgilash, ushlab qolish va ularni bir nomga birlashtirish uchun xizmat qiladi", deb ta'kidlaydi [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu muammoni hal qilishdagi xulosalarning nomuvofiqligi, ko'rinib turibdiki, atoqli otga turlicha yondashish bilan bog'liq. Uning ma'noga ega bo'lish qodirligini inkor etuvchi tadqiqotchilar unga faqat funktsional jihatdan yondashadilar. Bunday yondashuv, haqiqatan ham, turdash va atoqli otni obyektiv ravishda farqlashga imkon beradi - atoqli otning semantik "sifatsizligi" funktsional nuqtai nazardan shubhasizdir. Atoqli otning "semantikligi" tarafdorlari esa odatda uning genetik "turdoshligi"ga, ko'chma ma'nolarni rivojlantirish, nutqda ekspressiv konnotatsiyalarga ega bo'lish, turdosh otlar toifasiga o'tish va hokazolarga havola qilgan holda, unga diaxronik nuqtai nazardan yondashadilar [14]

Tahlil va natijalar. A.V.Superanskaya atoqli ot ma'nosiga assotsiativ psixologiya nuqtai nazaridan yondashadi: "Muayyan til jamoasining barcha a'zolari uchun turdosh ot bilan bog'liq ma'no ozmi-ko'pmi bir xildir. Atoqli ot bilan bog'liq

ma'no ancha kengroq diapazonda o'zgaradi. Hatto Jonni bir necha kishi tanisa ham, biri uchun bu do'st, boshqasi uchun tennis bo'yicha sherik, uchinchi uchun raqib yoki yoqimsiz suhbatdoshdir" [9].

Binobarin, atoqli ot (uning ma'nosi sifatida) so'zlovchilarda o'zi uyg'otadigan assotsiatsiyalar, tasavvurlar, his-tuyg'ularda qayd qilinadi. Atoqli ot ma'nosi har qanday sifat aniqligidan mahrum bo'lgan hodisa sifatida namoyon bo'ladigan bunday talqinning g'ayriqonuniyligi shubhasizdir. Tasavvur hissiy bilimning oliy shakli bo'lib, idrokka asoslanadi [1]. Keyingisi, obyektiv voqelikning subyektiv obrazi bo'lib, predmetning faqat alohida, ba'zan tasodifiy va ahamiyatsiz tomonlarini aks ettiradi, uning mohiyatini ochib bermaydi.

Atoqli otning o'ziga xosligi (otning alohida toifasi sifatida) turdosh ot bilan taqqoslashda namoyon bo'lib, ham funksional, ham semantik sathlarda kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, atoqli otning leksik ma'nosi uning turdosh predmetlar sinfi bilan o'zaro bog'liqligi orqali belgilanadi, turdosh predmetlarning muhim belgilari majmui atoqli otning mantiqiy yadro-tushunchasini tashkil etadi [15].

Atoqli otning lingvistik maqsadi butunlay boshqacha. U obyektini individuallashtirish, uni qator shunga o'xshashlardan farqlash uchun mo'ljallangan. Atoqli otning signifikativ o'ziga xosligi yagona denotatlarning mavjudligi, individuallashtirish jarayonining o'zi bilan bog'liq [16].

Turdosh otlar til leksik-semantik tizimining faol elementlari hisoblanadi. Ularning semantik mazmuni polisemiya, sinonimiya, antonimiya kabi paradigmatic toifalar bilan belgilanadi, ular turdosh otlarning o'ziga xos parametrlari bo'lib, ularning semantik chegaralarini aniq belgilab beradi.

O'xshashlik bo'yicha assotsiatsiyaga asoslanadigan aniqlashtirilgan frazeologik birliklarni shakllantirishning mumkin bo'lgan vositalaridan biri metaforadir.

Biz metaforik ko'chimning ikki turini ajratamiz:

I. Tanlash xususiyatiga asoslangan metafora.

II. Global (umumiy) metafora.

Tanlash xususiyatiga asoslangan metafora mexanizmi muayyan denotatga mos keladigan yagona tushunchaning tarkibiy qismlarga ajralishidan iborat [17].

Masalan, a Mark Tapley ("har qanday sharoitda ham umidsizlanmaydigan odam") frazeologik birligida (Mark Tapley – Ch.Dikkensning "The Life and Adventures of Martin Chuzzlewit" romani qahramoni), individuallikni tashkil etuvchi xususiyatlar majmuasidan shaxsiyat namoyon bo'lishining eng xarakterli xususiyati – xushchaqchaqlik ajralib turadi va umumlashtiriladi. "Apellyatsiya" mazmuni bilan to'ldirilgan atoqli ot nomlash doirasini kengaytirib, cheksiz miqdordagi denotatlar bilan potensial o'zaro bog'lanish xususiyatiga ega bo'lgan. Uning noaniq artikl bilan ishlatilishi ham bundan dalolat berib turibdi.

Atoqli otning o'z sifat xususiyatini yo'qotishi muayyan shaxsning xarakterli belgilaridan birini ajratib ko'rsatish (va keyinchalik uning mazmuni bo'yicha umumlashtirish) natijasida yuzaga keladi. Bu holat atoqli otning o'ziga xos emas (Til tizimida atoqli otning semantik mazmuni onomastik ma'nosi bilan tugaydi, nutq sathida esa u butunlay ma'lum bir denotatning xossalari majmuasi bilan bog'liq bo'ladi).

Yagona denotatlarning nomlari sifatidagi atoqli otlar va tuzilish jihatidan ularga adekvat bo'lgan atoqli ot-frazeologik birliklar bir-biridan tushunchaning ko'lami va mazmuniga ko'ra farqlanadi.

Masalan, Mart Tapley atoqli oti bir kishiga nisbatan qo'llanilganda xususiyatlar majmuasini o'z ichiga oladi, a Mark Tapley frazeologik birligi esa potensial jihatdan cheksiz miqdordagi denotatlarga faqat bitta xususiyatni ["xushchaqchaqlikni"] taqdim etish qobiliyatiga ega.

Binobarin, bu yerda miqdor sifatga aylanadi, chunki metaforik qayta anglanish natijasida atoqli ot nafaqat asl denotatga xos bo'lgan xususiyatlarining butun majmuasini saqlab qolmaydi, balki frazeologik birlik tarkibida shaxsning ismi ham [ushbu atamaning kategorial ma'nosida] bo'lmaydi.

Aniqlashtirilgan frazeologik birliklarning hosil bo'lishida o'xshashlik (metafora, qiyoslash), bo'yicha assotsiatsiyalar bilan bir qatorda, o'zaro bog'langanlik bo'yicha assotsiatsiyalar ham katta rol o'ynaydi. Ko'pgina frazeologik birliklar metonimik ko'chma asosida paydo bo'ladi.

Metonimik xususiyatga ega frazeologik birliklar qatoriga shaxs ismini u tomondan yaratilgan ob'ektga o'tkazish orqali hosil bo'lgan iboralarni kiritish mumkin, masalan:

Old Tom – «o'tkir jin navining nomi» (uni tayyorlagan Tomas Chamberlen nomi bilan atalgan). Kontekstda berilishi: ... Theyve the rarest drop of Old Tom that Ive tasted for many a year [18] [= "... Ularda eng zo'r bir oz shirin qilingan jin "Old Tom" bor edi – men bunaqasini uzoq vaqtdan beri tatib ko'rmagandim"]].

Ayrim frazeologik birliklar metonimik qayta anglanishning maxsus turi –sinekdoxa natijasida shakllangan. Bu "butun nomini uning ba'zi qismlari nomi bilan, umumiy nomni qism nomi bilan, va aksincha almashtirishdan iborat tropdir" [19].

Masalan, Brother Jonathan frazeologik birligida "Amerika xalqi" ma'nosida (Prezident Vashington Brother Jonathan deb atagan Konnektikut shtati gubernatori Jonathan Trumbella nomidan) biz qism nomining butunga o'tkazilishini kuzatamiz. Kontekstda qo'llanilishi: Not content with his own native religious machinery, the British bourgeois appealed to Brother Jonathan, the greatest organizer in existence of religion as a trade... [20] [= "O'zining diniy apparati bilan kifoyalanmay, ingliz burjuaziyasi o'sha paytdagi diniy chayqovchilikning eng katta tashkilotchisi bo'lgan "Jonatan akaga" murojaat qildi..."]].

Butun nomining qismga o'tkazilishi Prince Albert frazeologik birligi asosida turadi - (amer.) "uzun belburma kamzul" (bunday kamzulni 1860 yilda Qo'shma Shtatlarga tashrif buyurgan qirolicha Viktoriyaning eri shahzoda Albert kiyib yurgan). Ibora qo'llanilishining kontekstual namunalarni qiyoslab ko'ramiz:

"See that fellow coming in there? asked Hurstwood, glancing at a gentleman just entering, arrayed in a high hat and Prince Albert coat... [20] [= Bu yerga kim kelayotganini ko'ryapsizmi? – so'radi Herstvud past ovozda, shlyapa va uzun belburma kamzul kiygan jentlmenga qarab ...]]; Her indignation was stirring, though, and when she reached home, to find her father just dressed for church, shoe shined, bathed, and wearing the Prince Albert, she burst out with the uncensored story of her martyrdom [18] [= Uning ko'kragida g'azab paydo bo'ldi va u uyga yetib borgach, hammomdan hozirgina chiqqan va cherkovga borish uchun yaltiroq botinkalar va shahzoda Albertga o'xshab uzun belburma kamzul kiyib olgan otasini ko'rdi, u bir yo'la ko'p mashaqatli kunlarni boshidan kechirganda bo'lib o'tgan bor voqeani to'kib soldi"]].

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd qilingan assotsiatsiyalar frazeologik birlikning shakllanishini ham, uning ekspressiv va emotsional frazeosmalarini ham belgilovchi omil hisoblanadi. "Atoqli ot" tarkibli frazeologik birliklar zamonaviy ingliz

tilidagi iboralar fondida katta birliklar guruhini (1000dan ortiq) tashkil qiladi; ularning hammasi ham aslida ekspressiv yoki emotsional frazeologik birliklardir; ularning ekspressiv va emotsional xususiyatlarini aniqlashda atoqli ot yetakchi rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ролвская О. В. Метонимия в слове и в тексте // Филологические науки. – М., 2000. – №4. – С. 49 - 55.
2. Алеева Г. У. Сопоставительный анализ фразеологических единиц, характеризующих внешность человека в английском и турецком языках. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. - Казань: КГУ, 1999. – 26 с.
3. Милль Дж. Ст. Система логики силлогической и индуктивной. –Изд. 2-е.- М.: Academia, 1999. – 454 с.
4. Beard R. E On the question of lexical regularity // Journal of linguistics. –New York, 2001, vol. 17, NI. – P. 31 – 37.
5. Baumann P. Eigennamen im Fachwortschatz der Architektur und des Bauwesens in Englischen und Deutschen // Namenkundliche Informationen. –Leipzig, 1996. – Beiheft 9. - S. 85 - 91.
6. Dunkling, Leslie Alan. First names first. – London: Dent, 2007. -285 p. Dunkling, Leslie Alan: 114–115.
7. Eichler E. [Red]. Eigennamen und Terminus: Beitr. zur Fachsprachenonomastik / Hrsg. im Auftr. der Sekt. Theoretische u. angew. Sprachwiss., der Sekt. Germanistik u. Literaturwiss. - Leipzig: Univ. // 1986. -100 B.
8. Кацнельсон С. Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.-Л.: Наука, 1965. – 110 с.
9. Суперанская А. В. Заимствование слов и практическая транскрипция. - М.: ИЯ АН, 1962. – 48 с.
10. Beas S. Symbolic and Pragmatic Semantics. – Chicago: University of Chicago Press, 2005. - 450 p.
11. Bates E. Language and Context: the Acquisition of Pragmatics. – New York: Academic Press, 2006. - 312 p.
12. Безруков В. И. Лексическое значение слова: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.- СПб.: СПбГУ, 2008. - 24 с.
13. Гардинер А. Теория собственных имён. – М.: Academia, 1994. – 324 С.
14. Толстой Н. И. Ещё раз о «семантике» имени собственного // Актуальные проблемы лексикологии. – Минск: БГУ, 1970. – С. 201 - 204.
15. Jakobson R. Selected Writings: Word and Language. – The Hague, Paris: Mouton, 2007. - 752 p.
16. Greenberg J., Osgood Ch., Jenkins J. Memorandum concerning language universals. Universals of language. – Cambridge (Mass.), 2003. - 448 p
17. Шаховский В. И., Жура В. В. Дейксис в сфере эмоциональной речевой деятельности // Вопросы языкознания. – М, 2002. - № 5. – С. 38 – 56.
18. Green, Graham. Brighton Rock. – Middlesex, England: Penguin Books, 1991. - 248 p.
19. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов.- М.: СЭ, 1966. - 608 с.
20. Dreiser, Theodore. An American Tragedy. – Volume I. – Moscow: Foreign Languages Publishing House, 1992. - 401 p.